

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI"	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIYASI..... 221-225

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUIJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THEORETICAL AND LEGAL BASIS OF TRAINING QUALIFIED PERSONNEL FOR THE WATER MANAGEMENT SECTOR AND ISSUES OF THEIR IMPROVEMENT

Safarov Akmal

Karshi State University

Senior doctoral student

Abstract. This study highlights the theoretical and legal foundations of training qualified personnel for the water management sector, as well as the issues of improving this system. Based on the economic, environmental, and social importance of the water management sector, the necessity of training specialists with modern knowledge, practical skills, and professional competencies for this field is substantiated. The research analyzes sector-related regulatory and legal documents, educational standards, qualification requirements, and issues of integrating education with practice. In addition, scientific conclusions are presented on improving the personnel training system through digital technologies, innovative approaches, and dual education.

Keywords: water management, qualified personnel, theoretical foundations, legal foundations, education system, professional competence, state educational standards, dual education, innovative approach.

SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Safarov Akmal

Qarshi davlat universiteti

Tayanch doktoranti

E-mail: akmal.safarov1996@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda suv xo'jaligi sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlashning nazariy-huquqiy asoslari hamda ularni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Suv xo'jaligi tarmog'ining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyati asosida ushbu soha uchun zamonaviy bilim, amaliy ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash zarurati asoslab berilgan. Tadqiqotda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar, ta'lim standartlari, malaka talablari hamda amaliyot bilan integratsiya masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va dual ta'lim asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: suv xo'jaligi, malakali kadrlar, nazariy asoslar, huquqiy asoslar, ta'lim tizimi, kasbiy kompetensiya, davlat ta'lim standartlari, dual ta'lim, innovatsion yondashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N07>

Kirish. Bugungi kunda suv resurslaridan samarali foydalanish masalasi global muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi rivojlangan davlatlarda suv xo'jaligi tizimini takomillashtirish va uni ilmiy asosda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi uchun ham suv resurslarini boshqarish, irrigatsiya tizimlarini

rivojlantirish hamda gidrotexnik inshootlarni samarali ishlatish masalalari strategik ahamiyatga ega.

Suv xo'jaligi tizimining samarali faoliyat yuritishi, avvalo, ushbu sohada ishlaydigan malakali mutaxassislar tayyorlash bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli suv xo'jaligi sohasi kadrlari tayyorlashning nazariy va huquqiy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi suv xo'jaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlashning nazariy tamoyillari, huquqiy asoslari hamda bu tizimni takomillashtirish yo'llarini tahlil qilishdan iborat.

Suv xo'jaligi tizimi qishloq xo'jaligi, sanoat va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston hududida qadimdan irrigatsiya sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda suv resurslarini boshqarish, suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish uchun yuqori malakali muhandislar, gidrotexniklar va boshqaruv mutaxassislari zarur.

O'zbekistonda dastlabki harakatlar "O'zbekiston SSR Vazirlar Mahkamasi huzurida ilmiy, muhandis va boshqaruv kadrlarini tayyorlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi Komissiya tashkil etish to'g'risida"[1] gi VM Qarori qabul qilinishi bilan boshlandi. 1991-yilning 14-yanvarida qabul qilingan ushbu Qarorda O'zSSR Fanlar akademiyasi, O'zSSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zSSR Xalq ta'limi vazirligi, O'zSSR Sog'liqni saqlash vazirligi, VASXNIL O'rta Osiyo bo'limi, o'quv yurtlariga ega bo'lgan boshqa vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston MSSR Vazirlar Kengashi, viloyat ijroiya qo'mitalari va Toshkent shahar ijroiya qo'mitasi Komissiyaning tuzilmaviy bo'linmalarini tuzilib, uning ishchi organi vazifalarini boshqaruv apparatining tegishli bo'linmalariga yuklash belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 27-maydagi 144-sonli "Qobiliyatli yoshlar va mutaxassislarni tanlash va tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ilgari qabul qilingan ayrim normativ hujjatlarning kuchi bekor qilinganligini inobatga olinib, ilmiy, muhandis va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish tizimi nazarda tutildi. Quyidagi tashkilot va idoralar Komissiyaning struktura bo'linmalarini tashkil etishi hamda ularning ishchi organi vazifasini o'z tarkibiy tuzilmalariga yuklashi ko'rsatildi. O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi, O'zbekiston SSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston SSR Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash vazirligi, VASXNIL O'rta Osiyo bo'limi, Qoraqalpog'iston MSSR Vazirlar Kengashi, Viloyat ijroiya qo'mitalari, Toshkent shahar ijroiya qo'mitasi, boshqa tegishli vazirlik va idoralar[2] shular jumlasidandir.

Suv xo'jaligi sohasida kadrlar tayyorlash tizimi ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va zamonaviy texnologiyalar asosida shakllanishi kerak. Bu esa soha rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Suv xo'jaligi sohasi uchun mutaxassis tayyorlash jarayoni bir qator pedagogik tamoyillar asosida tashkil etiladi. Ulardan eng muhimlari ilmiylik, amaliyotga yo'naltirilganlik va uzluksizlik tamoyillaridir.

Respublikada ta'limning huquqiy va ma'naviy bazasini yaratish maqsadida dastlab 1992-yil "Ta'lim to'g'risida"[3] gi Qonun qabul qilindi va ushbu qonun ta'lim sohasidagi davlat siyosatini umuminsoniy qadriyatlarni, xalqning tarixiy tajribasini, madaniy va fan bobidagi an'analarini, jamiyatning istiqboldagi rivojini amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Bu Qonun asosida irrigatsiya sohasini yo'lga qo'yish maqsadida 1992-yil 11-aprelda "O'rta Osiyo irrigatsiya ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi haqida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi[4].

Ilmiylik tamoyiliga ko'ra, ta'lim jarayonida zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur. Bu talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Amaliyotga yo'naltirilganlik tamoyili esa nazariy bilimlarni ishlab chiqarish jarayonida qo'llash imkonini beradi. Suv xo'jaligi sohasi texnik va amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'lganligi sababli talabalar laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy darslar va ishlab chiqarish amaliyoti orqali o'z bilimlarini mustahkamlashlari lozim[5].

Uzluksizlik tamoyili esa ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayon maktab, oliy ta'lim va malaka oshirish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Suv xo'jaligi sohasida professional kadrlarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Bunday yondashuvga ko'ra, mutaxassis nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki amaliy faoliyatni samarali amalga oshira olishi ham zarur.

Respublika agrosanoat majmuasi uchun raqobatbardosh injener kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish, qishloq xo'jaligida ilg'or xorijiy tajribaga mos keluvchi melioratsiya texnologiyalari va zamonaviy texnika vositalarini joriy etish, kadrlar tayyorlash hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bozor mexanizmlarini tatbiq etish, shuningdek, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish maqsad qilindi. Shu niyatda "Toshkent qishloq xo'jaligini irrigatsiyalash va mexanizatsiyalash injenerlari institutida injener kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish to'g'risida"gi[6] Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 5-fevraldagi 47-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra Toshkent qishloq xo'jaligini irrigatsiyalash va mexanizatsiyalash injenerlari instituti yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi sifatida bosh institut va Qarshi filialini o'z ichiga olgan holda saqlab qolinadigan bo'ldi. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi doirasida o'quv-tajriba xo'jaligiga ishlab chiqarilgan paxta tolasining 85 foizigacha bo'lgan qismi davlat buyurtmasi sifatida belgilandi. Moliya va Melioratsiya vazirliklari har yili xarajatlarni rejalashtirayotganda, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlashni inobatga olib, o'quv-tajriba xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan foydani xarajatlarning bir qismini qoplashi belgilab berildi.

TQXIMII viloyatda irrigatsiya va melioratsiya sohasi kadrlarini tayyorlab berish uchun xizmat qiladigan tayanch dargoh sifatida xizmat qilishda davom etdi.

Olib borilgan islohotlar xalq xo'jaligini yaxshilashda yordam bergan bo'lsa-da, ko'zlangan natijani bermadi. 1996-yilda qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan keng ko'lamdagi chora-tadbirlarda kamchiliklar mavjudligi yaqqol bilindi[7]. O'tgan davr mobaynida tarixiy jarayonlar Xalq xo'jaligini rivojlantirish eng avvalo, respublikada munosib mutaxassislar avlodini yaratish bilan kechishini ko'rsatib qo'ydi.

Mamlakatimizdagi kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish masalalari uchun "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun asosiy huquqiy negiz sifatida boshqa huquqiy me'yorlarni qabul qilinishi uchun faol hujjat vazifasini o'tadi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun o'tgan davr mobaynida takomillashib, mukammallashib bordi. 1997-yilga kelib ushbu qonun yangi tahrirda qabul qilindi[8]. Ushbu Qonun dastlab qabul qilingan qonunning davomiyligi va rivojlanishi sifatida

ta'lim sohasini yanada demokratlashtirish, bozor iqtisodiyotiga moslashtirish va sifatini oshirishga qaratilgan o'zgartishlardan iborat bo'ldi. Oliy ta'lim ikki bosqichga ya'ni bakalavr va magistraturaga bo'lindi. Davlat ta'lim standartining o'zgarishi munosabati bilan mutaxassislar "Agroinjeneriya" ta'lim yo'nalishi tarkibiga kiritildi va bir o'quv reja bo'yicha mutaxassislar chiqarila boshlandi[9]. Ta'lim sifatini oshirish, zamonaviylashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga ko'proq e'tibor qaratilib, ta'lim sifatini baholash va nazorat qilish tizimi yanada tizimli va kuchaytirildi. O'qituvchilar va pedagog xodimlarning ijtimoiy himoyasi, malakasini oshirish va professional rivojlanishi bo'yicha aniq qoidalarni o'z ichiga oldi. Shu ma'noda soha kadrlarini yetishtirish jarayoni umumiy tarzda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar bilan birga kechdi.

Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekiston iqtisodiyotida va qishloq xo'jaligi tizimida katta o'zgarishlar yuz berdi. Fermerlik va dehqonchilik tizimlari shakllanayotgan bir paytda, irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi kadrlar tayyorlashga doir tizimli yondashuvlarga jiddiy qaralmadi. Muhimi, ko'proq yerni bo'laklarga ajratish, yangi fermerlik munosabatlarini yo'lga qo'yish edi. Asosiy mablag'lar yer islohoti va fermerlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi. Melioratsiya va irrigatsiya sohasidagi zamonaviy kadrlarni tayyorlash uchun moliyaviy resurslar yetarlicha ajratilmadi. Qishloq xo'jaligida ko'proq oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida ko'rildi, shu bois irrigatsiya va melioratsiya kadrlarining rivojlanishi nisbatan ikkinchi darajali muammoga tushib qoldi. 1998-yildagi qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan tadbirlar natijasi keyinchalik soha mutaxassislarining tajribasi, bilimi hamda ko'nikmalarining sust ekanligini ko'rsatib qo'ydi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"[10] gi 2004-yil 20-iyul 341-sonli hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazini faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"[11] gi VMning 2004-yil 20-iyul 343-sonli Qarorlari qabul qilindi.

2004-yilning 3-sentyabr sanasida 415-sonli Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi[12]. Qarorda qishloq va suv xo'jaligi sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Soha uchun malakali mutaxassislar yetishmasligi, eski va dolzarb bo'lmagan mutaxassisliklarning davom etishi, shuningdek, professor-o'qituvchilar malakasining zamonaviy talablar darajasida emasligi ko'rsatib o'tiladi. Bundan kelib chiqib qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi ta'lim yo'nalishlari qisqartirilib, ularning o'rniga zamonaviy talablar asosida yangi yo'nalishlar, jumladan fermer xo'jaligini boshqarish mutaxassisligi joriy etilishi belgilandi. Zamonaviy o'quv rejalar ishlab chiqilib, o'qituvchilar va talabalar malakasini oshirishga e'tibor qaratiladigan bo'ldi. Tashkilotlar qayta tashkil qilinishi, masalan, Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti tashkil etilib, boshqa qishloq xo'jaligi institutlari bilan integratsiya qilinadigan tizim joriy qilinishini nazarda tutdi. Ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etish va yoshlarni ilmiy ishlarga jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishi belgilandi. O'quv-texnika xo'jaliklari va fermer xo'jaliklari bilan yaqin hamkorlik o'rnatilib, amaliy bilim berishga urg'u berildi. Akademik litseylar tashkil qilinishi, qishloq yoshlarini soha bo'yicha ta'lim olishga jalb qilish yo'lga qo'yiladigan bo'ldi. Qisqasi, qaror qishloq va suv xo'jaligi sohasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim tizimini zamonaviylashtirish va sohaga iqtidorli yoshlarni jalb etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilab berdi[13].

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonuni, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” gi qonuni hamda boshqa huquqiy hujjatlar suv xo‘jaligi sohasida mutaxassis tayyorlashning huquqiy asosini tashkil etadi.

Davlat siyosati doirasida suv xo‘jaligi sohasini rivojlantirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalarini o‘rtasidagi hamkorlik ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda suv xo‘jaligi tizimida kadrlar tayyorlash jarayonida bir qator muammolar mavjud. Ular qatoriga ta‘lim jarayonida amaliyotning yetarli emasligi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdagi kamchiliklar hamda ilmiy tadqiqotlar bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzilishlarni kiritish mumkin.

Filialda akademik litsey bilan birgalikda zamonaviy o‘quv-laboratoriya, baza, telekommunikatsiya, masofaviy va interaktiv ta‘lim vositalari orqali sifatli o‘qitish mexanizmi joriy etildi. Ta‘lim, fan, ishlab chiqarish va innovatsiya tarmoqlari o‘rtasida integratsiyani mustahkamlash, ya‘ni fundamental va amaliy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini faollashtirishga erishildi. Tashkil etilgan oliy ta‘lim muassasasi yangi zamonaviy binoda faoliyat boshladi[14].

Bugungi kunda O‘zbekistonda yillik foydalaniladigan suvning atigi 20 foizi mamlakat hududida shakllanadi, qolgan 80 foizi esa Tojikiston va Qirg‘izistondan oqib keluvchi daryolarga bog‘liq[15]. Mavjud muammolarni yechimi uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- suv xo‘jaligi sohasida innovatsion ta‘lim texnologiyalarini joriy etish
- oliy ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini hamkorligini kuchaytirish
- zamonaviy laboratoriyalar va ilmiy markazlarni rivojlantirish
- xalqaro tajribani o‘rganish va joriy etish

Qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi” suv xo‘jaligi sohasi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Konsepsiyaning yettinchi bandida quyidagicha keltiriladi: “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda 2020-yil 1-oktyabrga qadar taklif kiritsin[16]. Taklifda suv xo‘jaligi tizimidagi rahbar va mutaxassis xodimlarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish shakllari, tartibi va bosqichlari, shuningdek, moliyalashtirish manbai aniq belgilansin. Suv xo‘jaligi rahbar xodimlarini uzluksiz ravishda malakasini oshirib borish va attestatsiyadan o‘tkazish, ularga muntazam ravishda kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirib borish imkoniyatini beruvchi uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga joriy etish mezonlari inobatga olinsin. Albatta bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – bu sohaning barqarorligini ta‘minlashga asos bo‘lib xizmat qilishida edi.

Suv xo‘jaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlash davlat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Mazkur sohada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash suv resurslaridan samarali foydalanish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish hamda ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Suv xo'jaligi sohasi kadrlari tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, normativ-huquqiy bazani mustahkamlash hamda ilmiy tadqiqotlar bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Suv xo'jaligi sohasi mamlakat iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi rivoji, ekologik barqarorlik va aholi farovonligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning samarali faoliyati, avvalo, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, yuqori malakali, mas'uliyatli hamda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash tizimining qay darajada yo'lga qo'yilganiga bevosita bog'liq. Shu sababli suv xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashning nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish va ularni takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalishdagi kadrlar tayyorlash tizimi muayyan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga tayangan holda shakllangan bo'lsa-da, uni zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Xususan, ta'lim mazmunining ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan yetarli darajada integratsiyalanmaganligi, amaliy mashg'ulotlar ulushining kamligi, shuningdek, innovatsion texnologiyalar va raqamli boshqaruv vositalarining ta'lim jarayoniga to'liq joriy etilmaganligi muammoli jihatlar sifatida e'tirof etiladi.

Umuman olganda, suv xo'jaligi sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlashning mustahkam nazariy-huquqiy asoslarini yaratish va ularni izchil rivojlantirib borish suv resurslarini samarali boshqarish, ekologik muvozanatni ta'minlash hamda sohaga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur sohada amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar kelgusida suv xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 36-son.
2. [144-сон 27.05.1991. Iste'dodli yoshlar va mutaxassislarni namoyon qilish, tanlash va tarbiyalash ishlari olib borilishini kuchaytirish to'g'risida](#)
3. [636-XII-сон 02.07.1992. Ta'lim to'g'risida](#)
4. TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti sayti//<https://tiame.uz>
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. –B. 259.
6. Sultonov A.S., Xudoyberganov Z.Ya., Qo'chqorova S.A. Suv xo'jaligi iqtisodiyoti. –Toshkent: Sharq, 2007. –B. 106.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. –B. 259.
8. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 29-сон 1-бет.
9. Sattorov A.A., Qambarov O.O. Mustaqillikyillarida O'zbekistonda irrigatsiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar // International Journal of Science and Technology, Volume – 2, Issue – 6, 2025. –P. 19-21.
10. Xudoyev I.J. Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash. 2018 y. <https://mhw.tiame.uz/>
11. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 29-сон 2-бет.
12. [Respublika qishloq va suv xo'jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida](#)
13. Jumaniyozov R. Qashqadaryoda irrigatsiya institutining filiali ochildi. \\ Institut matbuot xizmati.
14. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 36-сон. 4-бет

15. Shadiyeva Sh.N., Roziqov A.A., Rahimova S.H. O‘zbekistonda suv tanqisligi muammosi va uning yechimlari. // pedagogs xalqaro ilmiy jurnal//69-jild, 1-son, 2024-yil, noyabr. –B. 123-127.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 2020-yil 11-iyuldan kuchga kirgan.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).